



# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

## Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


## Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1 823,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 6,4 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 108,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 32,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 715,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 91,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 93,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 44,7 % ) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



## Uyushmagan savdo, mln. so'm






## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

### UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1 823,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 93,6 % ni tashkil etdi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga 94,1 % va yirik korxonalar hissasiga 5,9 % to'g'ri keldi.


### ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri 29,3 % ulush bilan 534,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Shirin shahar 1,5 % ulush bilan 27,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik subyektlari
2019-yil yanvar-iyul	2019-yil yanvar-iyul
2020-yil yanvar-iyul	2020-yil yanvar-iyul

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, 1 715,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 8,1 % ga pasaygan . Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 94,1 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sardoba (99,5 %), Oqoltin (99,6 %), Guliston (99,3 %), Xovos (99,5 %) tumanlarida va Shirin sh. (99,3 %) yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan Viloyatning barcha shahar va tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Sirdaryo (103,9 %), Mirzaobod (100,8 %) tumanlari va Yangiyer (103,3 %) shahrida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1 823,1</b>	<b>93,6</b>	<b>108,1</b>	<b>132,9</b>	<b>1 715,0</b>	<b>91,9</b>
<b>Guliston sh.</b>	534,2	100,0	41,2	111,9	492,9	99,1
<b>Shirin sh.</b>	27,9	97,6	0,2	87,3	27,7	97,7
<b>Yangiyer sh.</b>	167,1	103,3	11,9	93,0	155,1	104,2
<b>Boyovut</b>	89,3	95,8	1,2	72,3	88,1	96,3
<b>Guliston</b>	56,0	70,4	0,4	17,5	55,7	71,8
<b>Mirzaobod</b>	159,9	100,8	34,6	547,8	125,2	82,2
<b>Oqoltin</b>	131,8	97,3	0,5	23,2	131,3	98,5
<b>Sardoba</b>	74,7	52,2	0,4	18,2	74,3	52,7
<b>Sayxunobod</b>	61,1	59,1	1,0	35,7	60,1	59,8
<b>Sirdaryo</b>	460,1	103,9	16,3	118,3	443,8	103,4
<b>Xovos</b>	61,0	91,2	0,3	73,8	60,3	91,4

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 32,9 % ga o'sdi va 108,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,9 % ulushiga to'g'ri keladi.



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 715,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 8,1 % ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 94,1 % ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Oqoltin (99,6 %), Sardoba (99,5 %), Xovos (99,5 %), Guliston (99,3 %) tumanlari va Shirin shahri (99,3 %) yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 5,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Mirzaobod (21,7 %) tumani, Guliston shahri (7,7 %), Yangiyer shahrida (7,1 %) kuzatildi.



**SIRDARYO VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA  
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**


2020- yil yanvar-iyul oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2 145,5 ming so'm (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 8,2 % ga kamaydi) va Sardoba tumani (51,2 %) hamda Sayxunobod tumani (58,1 %), Guliston (68,6 %), Boyovut (94,2 %), Xovos (89,6 %), Oqoltin (95,2 %), tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Guliston shahri (5 870,0 ming so'm), Yangiyer shahri (3 840,7 ming so'm) va Sirdaryo (3 577,9 ming so'm) tumani hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Sirdaryo viloyati	2 145,5	91,8
Guliston sh.	5 870,0	98,2
Shirin sh.	1 484,0	96,6
Yangiyer sh.	3 840,7	101,4
Boyovut	687,2	94,2
Guliston	769,7	68,6
Mirzaobod	2 169,0	97,9
Oqoltin	2 525,5	95,2
Sardoba	1 130,0	51,2
Sayxunobod	789,9	58,1
Sirdaryo	3 577,9	102,0
Xovos	637,3	89,6

**Asosiy tarkib, foizda**




**O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**




Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 93 658,5 mln. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 55,3 % ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi 38 945,9 mln. so'mni (o'zgarish sur'ati 58,8 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 54 712,6 mln. so'mni (o'zgarish sur'ati 38,2 %) tashkil etdi.

**Savdo aylanmasi hajmi va ulushi**



**Eng yuqori ulushga ega hududlar**





**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-iyul oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 38 945,9 mln. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 54 712,6 mln. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mln. so'm	2019- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mln. so'm	2019- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mln. so'm	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Siirdaryo viloyati</b>	<b>93 658,5</b>	<b>44,7</b>	<b>38 945,9</b>	<b>58,8</b>	<b>54 712,6</b>	<b>38,2</b>
Guliston sh.	22 467,8	102,3	22 450,0	111,6	17,8	0,4
Shirin sh.	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Yangiyer sh.	3 335,5	2,8M.	3 335,5	41,8	0,0	0,0
Boyovut	9 019,8	71,6	2 685,5	35,0	6 334,3	54,5
Guliston	11 464,9	18,4	746,3	40,8	10 718,6	43,9
Mirzaobod	1 648,3	84,5	0,0	0,0	1 648,3	6,6
Oqoltin	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Sardoba	15 954,6	9,1	407,1	9,6	15 547,5	47,8
Sayxunobod	19 800,7	10,4	3 385,0	87,3	15 896,0	94,1
Sirdaryo	5 457,1	180,8	5 440,3	34,4	16,8	1,0
Xovos	4 509,8	61,0	496,3	12,6	4 013,5	16,3

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



692,0  
mln. so'm

**Tuzlamalar**



897,1  
mln. so'm

**Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**



79,4  
mln. so'm

**Qurtilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

549,9  
mln. so'm



**Non va non  
mahsulotlari**



369,6  
mln. so'm

**Sut va sut  
mahsulotlari**

46,0  
mln. so'm



**Tuxum**

608,0  
mln. so'm



**Don mahsulotlari** (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

787,5  
mln. so'm



**Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-xashaklar**

8,4  
mln. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari** (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

2020- yilning yanvar-iyul oylarida Viloyatning barcha shahar va tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 38 945,9 mln. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (897,1 mln. so'm) to'g'ri keldi.

72,0  
mln. so'm



**Ziravorlar**


260,2  
mln. so'm



**Tovuq go'shti**

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020-yilning yanvar-iyul oylarida Viloyatning barcha shahar va tumanlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 54 712,6 mln. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 43 888,9 mln. so'mni, qo'y va echkilar 8 657,9 mln. so'mni, otlar 2 086,7 mln. so'mni, parrandalar 79,1 mln. so'mni, tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:



## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Kichik tadbirkorlik subyektlari

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1059,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 24,3 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 174,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 48,3 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining savdo tovar aylanmasi 884,7 mlrd. so'mni ( 14,8 % ga kamayish) tashkil etdi.


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik tadbirkorlik subyektlari

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**


Ulgurji savdo tovar aylanmasida o'tgan yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlariga ega hududlar, Oqoltin tumani (106,6 %) Shirin shahri (99,9 %), Yangiyer shahrida (99,2 %) kuzatildi.

**Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik tadbirkorlik subyektlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	1059,4	75,7	174,7	48,3	884,7	85,2
Guliston sh.	333,7	84,9	11,9	46,4	321,8	87,6
Shirin sh.	184,8	99,9	0,0	61,5	184,8	99,9
Yangiyer sh.	38,0	99,2	0,0	0,0	38,0	99,2
Boyovut	33,3	40,0	25,8	34,2	7,4	95,9
Guliston	34,7	76,1	7,9	46,8	26,9	93,1
Mirzaobod	97,6	95,2	35,6	205,2	62,1	72,8
Oqoltin	30,0	106,6	19,9	115,8	10,1	92,2
Sardoba	27,8	42,2	25,9	40,5	1,9	99,1
Sayxunobod	51,1	44,4	28,6	31,0	22,5	98,5
Sirdaryo	195,7	66,7	10,3	35,6	185,4	70,1
Xovos	32,8	65,8	8,8	36,8	24,0	92,6

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, 884,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 14,8 % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 83,5 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiyer shahri (100,0 %), Shirin shahri (100,0 %), Guliston shahri (96,4 %), Sirdaryo (94,7 %), Guliston (79,0 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Sardoba (6,7 %) tumaniga to'g'ri keldi.

